



**TALABALARNING ILMIY MATN YOZISHIDA SUN'IY INTELLEKTDAN
FOYDALANISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH**

Inamov Dilmirza Dedamirzayevich

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent NamDU

Gulmatova Mahliyo Rasuljon qizi

NamDU tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ilmiy matn yozishning o'ziga xos xususiyatlari, talabalrda ilmiy matn yozishda sun'iy intellektdan foydalanish madaniyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются особенности написания научного текста, формирование у студентов культуры использования искусственного интеллекта при написании научного текста.*

Abstract: *This article discusses the specific features of scientific writing and the formation of a culture of using artificial intelligence in scientific writing among students.*

Kalit so'zlar: *ilmiy matn, sun'iy intellekt, ChatGPT, ilmiy etika, ilmiy-o'quv ishlari, ilmiy madaniyat.*

Ключевые слова: *научный текст, искусственный интеллект, ChatGPT, научная этика, научные и образовательные работы, научная культура.*

Keywords: *scientific text, artificial intelligence, ChatGPT, scientific ethics, scientific and educational work, scientific culture.*

Bugungi axborot asrida ma'lumot olish va tarqatish eng oson ishga aylandi. Bunga, albatta, kompyuter, telefon kabi texnik vositalar xizmat qilmoqda. Barcha sohalarda katta o'zgarishlar bo'lgani singari ta'lim tizimida ham sun'iy intellekt tub burilish yasamoqda. Talabalar nigohida sun'iy intellekt "vazifa bajaruvchi", "eng katta yordamchi" hisoblanadi. Bugungi talabalar "zet avlod"ga mansub bo'lib, ular hayotlarini telefon, internet, kompyutersiz tasavvur qila olmaydilar. "Sun'iy intellekt innovatsion texnologiyalar bilan yashash tarzimizni butkul o'zgartirdi. Sun'iy intellekt insoniyat hayotiga bo'rondek kirib keldi va jamiyatning har bir sohasiga o'z ta'sirini o'tkazib, aql bovar qilmaydigan o'zgarishlar yasadi".[1] Agar sun'iy intellekt shu sur'atda rivojlansa, insonning aqliy mehnat qilishi uchun internet suvdek zarur, telefon yoki kompyuter havodek kerakli manbaga aylanadi.

Sun'iy intellekt (SI) – bu kompyuter tizimlari yoki mashinalarning inson aqliga o'xshash aqliy vazifalarni bajarish qobiliyati. Bunga o'rganish, fikrlash, muammolarni hal qilish, nutqni tanib olish, tasvirlarni aniqlash kabi faoliyatlar kiradi. Sun'iy intellekt dasturlari va tizimlari ma'lumotlarni tahlil qilish, qarorlar qabul qilish va xatti-harakatlarni optimallashtirish uchun matematik va statistik metodlardan foydalanadi. Shunday ekan, sun'iy intellektdan foydalanib ilmiy maqola, kurs ishi, hatto, dissertatsiya ham yozish



mumkin. SI ilmiy matnni xuddi insondek yozib bera oladi. Unga g'oya berilsa kifoya qiladi. Quyida ilmiy matga xos xususiyatlarni ko'rib chiqamiz.

Ilmiy matnni til va uslub jihatdan o'rganish, mazkur uslubda bayonning eng maqbul variantlarini tavsiya etish, uslub qonuniyatlarini aniqlash ilmiy uslubning obyekti hisoblanadi. Til birliklaridan fan sohasida, ilmiy ijod jarayonida foydalanish ushbu uslubning alohida tadqiqiga asos bo'ldi. Ilmiy nutqning maqsad va vazifasi ilmiy aloqadan: informatsiya beruvchi – olimlar, qabul qiluvchi – oliy ma'lumotli kishilardan: aloqa formasi yozma yoki og'zaki adabiy nutq formasidan iborat bo'lishidir.[3] Bunda "informatsiya" atamasi "mazkur nutqiy axborotda mujassamlashgan, uzatish, saqlash hamda qayta ishlash ob'ekti deb qaraluvchi ma'lumotlar tushuniladi"[2, 178]. Ilmiy uslubning maqsad va vazifalari ilm-fanning rivojlanishi uchun asos vazifasini bajaradi. Ma'lum fanga oid ilmiy matnning uslubiy jihatdan xatoliklarga ega bo'lishi katta kamchilik sifatida qaraladi. Shunday bo'sa ham bugungi kunda SI nafaqat talabalarning ilmiy ishlariga, balki ilm ahlining tadqiqotlariga ham katta ta'sir o'tkazmoqda. Bu to'g'risida dunyoning yetakchi ilmiy nashrlarida maqolalar e'lon qilinmoqda. "Ilmiy maqolaning asosiy maqsadi yangi ma'lumotlarni etkazishdir, bu ma'lumotlar dalillar bilan tasdiqlanishi kerak va mualliflar tomonidan keltirilgan barcha da'volar nashr qilinishidan oldin sinchiklab tekshirilishi lozim. Mualliflar nashr jarayonida ingliz tilida tahrir qilish xizmatlaridan yordam so'rashlari mumkin, ammo bunday xizmatlar hamkor muallif sifatida ko'rsatilmasligi kerak. Agar ChatGPT faqat tilni tahrir qilish maqsadida ishlatilsa, unda ilmiy maqolalar tayyorlashda uni ishlatishda hech qanday muammo yo'q. Biroq, ChatGPT tomonidan yaratilgan har qanday yangi g'oyalar haqiqiy tajribalar orqali tasdiqlanishi va ularning natijalari insonlar tomonidan tekshirilishi kerak. Oldinroq ko'rsatilganidek, hozirgi versiya ChatGPT noto'g'ri ma'lumotlarni yaratish imkoniyatiga ega, shuning uchun inson mualliflar ChatGPT tomonidan yaratilgan ma'lumotlarni maqolalariga kiritishdan oldin diqqat bilan tekshirishi va tasdiqlashlari muhimdir".[4] Yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda ilmiy matnni yaratishda inson omili shartligini, uni tahrirlashda esa, ChatGPTdan foydalanish mumkinligini qayd eta olamiz.

Sun'iy intellekt ta'lim uchun juda ko'p potentsial afzalliklarga ega bo'lsa-da, e'tiborga olinishi kerak bo'lgan ba'zi kamchiliklar ham mavjud. Ta'limda sun'iy intellektning afzalliklaridan ba'zilari:

- Baholash va fikr-mulohazalar samaradorligi va aniqligini oshirish;
- Har bir talaba uchun individual ta'lim;
- Talabalar uchun qulaylik va imkoniyatlar kengligi;
- Talabalarning faolligi va motivatsiyasining oshishi

Shu bilan birga, e'tiborga olish kerak bo'lgan ba'zi kamchiliklar ham mavjud, jumladan:

- Amalga oshirish va texnik xizmat ko'rsatishning qimmat narxlar;
- Texnologiya va Internetga bog'liqlik;
- Kitoblar o'qimaslik holatlarining ko'payishi;
- Maxfiylik bilan bog'liq muammolar.[5]



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, talabalarning o'quv-ilmiy faoliyatlarini tashkil etishda o'qituvchining bilim saviyasi yuqori bo'lishi zarur. Talabalarning ilmiy matn yozishda sun'iy intellektdan foydalanish madaniyatini shakllantirish uchun quyidagilarga amal qilish yaxshi samara beradi:

1. Talabalarni halollikka o'rgatish;
2. Ilmiy etika haqida seminar tashkil qilish;
3. Mavzuning dolzarbligini anglab yetishlari uchun ko'mak berish;
4. Kurs ishini og'zaki himoya qildirish;
5. Foydalanilgan adabiyotlarning elektron pdf variantini ham qabul qilib olish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sabirova O. TA'LIM SOHASIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH
2. Мукаррамов М. Хозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. - Тошкент: Фан. 1984. –Б. 16.
3. Ахманова О.С. Словар лингвистических терминов. – Москва, 1966. – С.178.
4. Seong-Gon Kim Using ChatGPT for language editing in scientific articles
Seong-Gon Kim <https://jkamprs.springeropen.com/articles/10.1186/s40902-023-00381-x>.
5. OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKTNING ROLI VA TA'SIRINI
ORTIB BORISHI – тема научной статьи по наукам об образовании читайте бесплатно
текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка